

***Ikrom ISLOMOV,***

*Renessans ta'lim universiteti dotsenti, f.f.d*

*E-mail: ikrom75islom@gmail.com*

*Tel.: (97) 470 42 64*

*Filologiya fanlari doktori, professor L.Raupova taqrizi asosida*

## **THE SEMANTIC STRUCTURE OF SOME UNITS REPRESENTING GEOGRAPHICAL CONCEPTS**

### Annotation

This article discusses the questions related to the link between the general lexical unit and the term formed on its basis, as well as the analysis of the general and differential seme, basic sema in the semantic structure of terms and lexemes, that are in the base-derivative relationship, is conducted; the word-formative system of the Uzbek geographic terms are studied. It is proved that the results of a system study of the interaction of a term and a common lexical unit serve to improve their lexical interpretation.

**Key words:** Lexeme, term, sememe, seme, basis of seme, geographical term, semantic structure, lexicographic interpretation, differential seme.

## **СЕМАНТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА НЕКОТОРЫХ ЕДИНИЦ, ПРЕДСТАВЛЯЮЩИХ ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ПОНЯТИЯ**

### Аннотация

Данной статье рассмотрены некоторые вопросы связи общелексической единицы и образованного на его основе термина, а также проведен анализ общей и дифференциальной сем, семы основы в semantic структуре терминов и лексем, находящихся в отношениях основа-производная; изучены словообразовательная система узбекских географических терминов. Обосновано, что результаты системного изучения взаимодействия термина и общей лексической единицы служат совершенствованию их лексического толкования.

**Ключевые слова:** Лексема, термин, семема, сема, основа сема, географический термин, semantic структура, лексикографическая интерпретация, дифференциальная сема.

## **GEOGRAFIK TUSHUNCHALARNI IFODALOVCHI BA'ZI BIRLIKLARNING SEMANTIK STRUKTURASI**

### Annotatsiya

Ushbu maqolada terminlarning semantik strukturasiga xos terminologik belgi va xususiyatlar termin hosil bo'lishida asos bo'lgan umumleksik birlilik semantikasi orqali yuzaga kelishi masalasi tahlil qilingan. Shuningdek, termin va umumleksik birlilik o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasiga doir fikr-mulohazalar bayon qilingan. Asos-hosila munosabatida bo'lgan termin va leksemaning semantik strukturasiidagi umumiyl sema, farqlovchi sema, asos sema, umumiyl bitta tushuncha bilan bog'langan termin va leksema munosabatidagi umumiyl va farqli belgilari o'zbek tilidagi ayrim geografik terminlar misolida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Leksema, termin, semema, sema, asos sema, geografik termin, semantik struktura, leksikografik talqin, farqlovchi belgi.

**Kirish.** Har qanday tilning leksik sistemasida terminologik birliklar ham mavjudlik va muhim ahamiyat kasb etadi. Sohaviy tushuncha va hodisalarni ifodalovchi maxsus leksik birliklar, bir tomondan chegaralangan leksikani, boshqa tomondan, maxsus leksik tizimni tashkil qilishda faol ishtirot etuvchi o'ziga xos terminologik belgi-xususiyatlarga ega alohida lingvistik hodisadir. Terminlar va ularning paydo bo'lishi, ma'no taraqqiyoti, albatta, terminlar mansub bo'lgan til tarixi, rivoji bilan birga o'zga tillar ta'siri va taraqqiyoti bilan ham uzviy aloqadorlikka ega. Binobarin, termin va unga asos bo'lgan umumleksik birlilik o'rtasidagi leksik-semantik munosabatlar masalasi mazkur birliklar tadqiqi, talqini va tavsifida jiddiy o'rinn egallaydi. Umumleksik birlilik va soha termini o'rtasidagi mavjud leksik-grammatik aloqadorlik, semantik tafovut ularni qiyosiy metod asosida tahlil qilinishini taqozoqiladi.

Borliqning boshqa barcha hodisalariga xos bo'lgan ko'p qirralilik kuzatuvimizdagi geografik terminlarga ham tegishlidir. Olamning lisoniy manzarasi va ilmiy terminologiya o'rtasidagi o'zaro munosabat soha tushunchalarini ifodachisi bo'lgan terminlarda yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Umumleksik birliklarga juda ko'plab qo'llanishlar xos bo'lib, jumladan, terminologik, onomastik, dialektal va badiiy qo'llanishlarning har birida mazkur leksik birliklar o'z semantik tabiatida mavjud bo'lgan belgilari bilan farqlilik kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Umumleksik birlilik bilan terminologik birlilik orasidagi munosabat masalasi tilshunoslikda keng ko'lama, turli daraja va aspektlarda tadqiq qilib kelinmoqda. Bu boradagi barcha tadqiqotlarda termin va leksemaning o'zaro umumiyl, farqlilik belgilari, ma'no va vazifalari muayyan darajada o'z talqini va tavsifini topgan. Soha tushunchasini ifodalovchi terminologik birlilik monosemantik karakter kasb etishi A.A.Reformatskiy, N.A.Baskakov, S.Uzmanov tononidan maqsadga muvofig deb talqin qilingan bo'lsa, terminning polisemantik yoki omonimlik xarakterda bo'lishi R.N.Infantyeva tononidan me'yoriy holat deb baholanganligini kuzatish mumkin[2]. Bundan ma'lum bo'ladiki, terminlar umumleksik birliklardagi kabi semantik jihatdan umumiyl, qo'llanish jihatidan faol yoki chegaralanmagan, ma'no tarkibi asosan ko'p ma'nolilik moyil bo'lgan, nutqning turli uslublarida erkin qo'llaniladigan imkoniyat va xususiyatlarga ega bo'lmasa-da, umumleksik birliklar kabi birdan ortiq ma'no bildirish, ma'no kengayishi va taraqqiyoti, yasalish, bir necha soha tushunchalarini anglata olish kabi imkoniyatlarga ega alohida lingvistik hodisa hisoblanadi. Bu esa terminlarning talqini va tasnifida, nutqiy faoliyatdag'i ishtiroti masalasida murakkablik kasb etishidan dalolat beradi. Umumleksik birlilik bilan sohaviy birlikning xususiyatlarini tekshirish va baholashda, albatta, termin bilan unga asos bo'lgan umumleksik birlilik orasidagi munosabatning sistemaviy o'rganilishi ham masalaning ilmiy talqinida muhim o'rinn egallaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbek tili terminosistemasiida geografik tushunchalar bilan bog'liq sohaviy birlikning terminologik va umumist'mol qirrasini ajratish ularning lisoniy qiymatini belgilashda juda muhim omil hisoblanadi. Tadqiq predmeti bo'lgan o'zbek tili geografik terminlarining semantik strukturasi va uning lingvistik talqinida terminlarga xos bo'lgan bir qancha filologik, sohaviy vosita va omillar yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida geografik terminlarning sohaviy tushunchani ifodalash xususiyatlari, ma'no ko'lami va ilmiy texnikaviy vazifalari, leksikografik tavsif va talqinlari yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan [1; 2; 3; 4; 7]. Bu boradagi

leksikografik talqin va tavsifni umumiste'mol birliklar va ularning xoslangan (atamaviy, dialektal) qo'llanishlari nuqtai nazaridan olib borilsa, terminlarning leksikografik talqin va tavsiflari yanada mukammallik kasb etadi.

**Tahlil va natijalar.** Muayyan fan tarmoqlari, kasb-hunar sohalarida ma'lum tushunchalarni aniq ifodalash maqsadida umumleksik birliklarning ma'nosini ixtisoslashtirilishi natijasida terminlarning shakllanishi ustuvor ahamiyatga molik. Xususan, geografik tushunchalarni ifodalandaydigan o'zbek tili terminlari tizimida ham bu holat yetakchilik qiladi. Geografik terminlarning vujudga kelishida salmoqli o'rinn egallaydigan yer sathi ko'rinishlari bilan bog'liq umumleksik birliklar miqdori salmoqli o'rinn egallaydi: tog', tepa, do'ng, cho'qqi, qir, adir, dasht, dara, soy kabilar.

Aytish mumkinki, o'zbek geografik terminlarining ko'p qismi o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida vujudga kelgan. Bundan geografik leksemalar, xususan, terminlar sistemasining taraqqiyoti, boyish manbalari, semantik tarkibi asosan umumiste'moldagi leksik birliklar bilan chambarchas bog'liqligi ham ayon bo'ladi.

Xalq tilida uzoq davrlardan beri iste'molda bo'lgan yer yuzasi ko'rinishlarini ifodalovchi so'zlar geografik tushunchani anglatishga ixtisoslashib, terminologik mohiyat kasb etganda umumleksik birlik va termin o'rtasida sodir bo'lgan shakliy-mazmuniy o'zgarishni ularning leksikografik izohlari orqali ham anglash mumkin. Xususan, tepe leksemasining umumiste'mol va atamaviy mavqedagi ikki sistema birliklari orasidagi munosabat qanday ko'rinishlarga ega bo'lishini kuzatamiz.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da tepe leksemasiga quyidagicha izoh berilgan: "TEPA 1 Yer sathidan baland, do'ng joy; tepalik, balandlik"[5]. Leksemaning terminologik ma'nosini esa quyidagicha talqin qilingan: "Tepa - usti gumbaz shaklidagi, yonbag'irlari qiya bo'lgan do'ng, baland joy. Nisbiy balandligi 200 m dan oshmaydi" [7].

Kyeltirilgan izohlar, albatta, farqli va bunday bo'lishi tabiiy. Chunki umumfilolgik lug'atda so'zlar umumiste'mol nuqtai nazaridan turib izohlangan bo'lsa, uning sohaviy tushunchani ifodalovchi leksema sifatidagi ma'nosini esa soha nuqtai nazaridan talqin etilgan va unga (tavsifga) ilmiy muayyanlik kiritilgan. Zero, tavsiflar o'zaro qiyoslanganda, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da tepe leksemasining izohida "umuman boshqa joyga nisbatan yuqorida joylashgan balandlik" degan belgisi ahamiyatli bo'lib, terminologik izohidagi "nisbiy balandligi 200 m dan oshmaslik" semasi bilan o'zaro farqlanishi kuzatiladi. Ikki tizim birliklari xos umumiylig esa har ikkala leksema tarkibida mayjud bo'lgan "balandlik" semasidir. Alovida sistemalardagi ikki tepe so'zi bitta leksemaning turli mavqedagi ko'rinishi, ularning ma'nolari o'rtasida o'zaro aloqadorlik sezilib turadi, biroq umumxalq tilidagi tepe ma'nosini maxsuslashtirish yo'li orqali sohaviy vazifaga o'tganda, umuman boshqa tushunchani emas, balki umumiste'mol birlik ma'nosiga ilmiy tus berilib, soha tushunchasini ifodalashga ixtisoslashishi yuzaga chiqadi.

Tepa geografik termini semantik strukturasidagi "200 m dan oshmaslik" ma'no differensial sema hisoblanadi. Kuzatuvdag'i tepe leksemasining ijtimoiy shartlangan va atamaviy sememalari "balandlik" semasi bilan paradigmatic munosabat hosil qilib, "aniq chegaralanmaganlik" va "200 m dan oshmaslik" semalari asosida o'zaro teng qiymatli ziddiyat hosil qiladi. Umumiste'mol birlik ma'nosini terminologik xarakter kasb etganda, uning semantik strukturasida "ixtisoslashish" natijasida torayish yuz beradi, bu torayish terminni yuzaga kelishini ta'minlovchi muhim va hal qiluvchi omildir. Demak, tepe tipidagi umumleksik birlik sememasining ixtisoslashishi va muayyanlashgan hosila ko'rinishi, muayyan sohaning terminlari tizimining shakllanish va boyish manbasi tarkibida qaralishi maqsadga muvofiq.

Bu singari holatni boshqa geografik termin va unga asos bo'lib xizmat qilgan boshqa birliklar o'rtasida ham kuzatish mumkin. Jumladan, tog' "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha talqin etiladi: "TOG' 1 Yer yuzasining tevarak-atrofdagi tekislik, tepalik yoki boshqa balandlikka nisbatan yakka yoki qator holda baland ko'tarilgan, odatda, turli tosh, qattiq jismlardan iborat qismi"[5]. Tog' leksemasi geografik termin sifatida esa shunday izohlangan: "Tog'lar – Yer po'stining yakka-yakka yoki qator tizmalar, palaxsalar shaklida ko'tarilgan joylari. Turli xil balandlikda bo'ladi. Mutlaq balandligi 600 m dan baland joylar odatda tog'lar deyiladi..." [7]. Umumiste'mol birlik tog' so'zi va tog' termini "baland ko'tarilgan qism, joy" semalari asosida o'zaro o'xshashlik hosil qilib, "tekislik yoki tepalikka nisbatan baland" va "600 m dan baland" semalari bilan o'zaro farqlanadi. Bu o'xshashlik va farqlar mazkur leksemalarning lisoniy sistemadagi o'zaro munosabatlari asosida. Tog' leksemasining umumiste'mol va atamaviy ma'nolari farqlilik kasb etsa-da, borliqda bitta voqeqlik (ob'yekti) bilan bog'liqligi jihatidan umumiylig kasb etadi.

Adir leksemasi umumfilologik lug'atda quyidagicha izohlangan: "ADIR Tog'larga yaqin, tog' etaklaridagi alovida tepalik yerlar" [6]. Geografik terminlarning izohli lug'atida esa adir leksemasi "Adirlar – O'rtal Osiyo tog'larini etagidagi cho'l va chalacho'l qilar... Adirlarning mutlaq balandligi 400-500 m dan 1000-1500 m gacha boradi..." tarzida izohlanadi [7].

Adir leksemasining yuqorida keltirilgan ikki xil izohiga tayanib, uning semalarini ham ikki ko'rinishda berish mumkin. Adir umumiste'mol birlik sememasini tarkibi "umumiste'molga oid", "yer yuzasi ko'rinishi", "balandlik" kabi semalardan tashkil topgan. Adir termini sememasini tarkibini esa quyidagicha belgilash mumkin: "geografiyaga oid", "balandlik", "yer yuzasi ko'rinishi", "balandligi 400-500 m dan 1000-1500 m gacha", "cho'l va chalacho'l zonasida uchraydigan" kabi semalardan iborat. Ikki alovida tizim birliklarining o'zaro umumiyligi sememalaridagi "baland yer, balandlik" belgisiga asoslansa, yer sathi ko'rinishini ifodalovchi umumiste'mol atov birlik adirdagi "umumiyligani balandlik" semasi, termin mavqeidiagi adir leksemasi sememasining "400-500 m dan 1000-1500 m gacha bo'lgan balandlik" semasi ularning o'zaro alovida leksemalar sifatida qaralishiga asos bo'ladi.

O'zbek tili geografik terminlari sirasida birikmali turlari ham kuzatiladi: baland tog'lar, burmali tog'lar, pastlik yer, yassi jar, o'rtacha tog'lar kabi. Birikmali geografik termin asosan sifat+ot tipidagi bitishuv munosabatlari birikuvdan tashkil topgan bo'lib, ularning shakllanish asosi umumleksik birliklardir. Albatta, bunday birikma otli birikma sifatida talqin etilishi barobarida, sifat+ot tipidagi grammatick vositasiz birikkan baland tog'lar, burmali tog'lar, yassi tepe, pastlik yer kabi qo'shma leksemalarning ma'noviy qiymatini yordamchi komponent vazifasida kelgan baland, burmali, yassi, pastlik leksemalarining sememasiga tayangan holda asoslash lozim bo'ladi. Xususan, baland tog'lar jo'g'rofij leksemaning sememasini baland va tog' qismalarining sememaviy munosabati asosida quyidagicha belgilanishi mumkin: "balandligi 2000 m dan yuqori bo'lgan" semalari asosida sohaviy tarkibidan joy olib turgan bo'lsa, umumiste'mol mavqeidiagi qo'llanishda "umuman, ancha baland" semasi asosida ishtirok etadi.

**Xulosa va takliflar.** O'zbek tili geografik terminlarining umumiste'mol birliklar tizimi bilan munosabati masalasining birliklar semantik tarkibini o'zaro qiyoslash orqali tadqiq qilinishi tadqiqot predmeti mohiyatini to'g'ri va sog'lom mantiqlar asosida belgilashga ko'mak beradi. Soha terminlari va umumiste'mol birliklar o'rtasidagi o'zaro aloqa-munosabat, leksik-semantik hodisalar yetarli darajada yoritilmaganligi alovida o'rganishni taqozo qilib turadi.

Soha leksikasidagi terminlar va ularga asos bo'lgan umumiste'mol so'zlar o'rtasidagi o'zaro umumiylig va farqlar, avvalo, semantik tarkibi, tushuncha anglatishdagi umumiylig va aniqlik asosida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, umumiste'mol birlik va terminlar orasidagi shakliy-mazmuniy munosabatlari masalasi alovida yondashuv va tahlilni taqozo qiladi. O'zbek tilining geografik terminlari semantik strukturasini komponent tahlil qilish, terminning semantik tabiatini tavsiflash, terminologik belgilarni ajratish,

leksikografik talqin va tavsiflarni mukammallashtirish ham, avvalo, umumleksik tizim birliklari bilan bo‘lgan munosabati asosida ta’minlansagina masala mohiyati yanada yorqinlik kasb etadi.

Terminlar semantik tarkibi, xususiyati, sohaviy qo‘llanishidagi o‘ziga xosliklarning ilmiy asoslarda tekshirilishi, o‘rganilishi terminlar tizimida qayd qilinadigan polisemantiklik va omonimlik hodisalari bilan bog‘liq masalalar tadqiqida ham samarali natijalarни ta’minlaydi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Ҳасанов Ҳ.Ҳ. География терминлари луғати. – Тошкент: Фан, 1964. – 112 б.
2. Қораев С.Қ. ва бошқ. Географик терминлар ва тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 156 б.
3. Мурзаев Э. Словарь народных географических терминов. – М.: Мысл, 1959. – 633 с.
4. Мирортиқ Мирабдулла ўғли. Жўғрофий атамалар луғати. – Тошкент: Фан, 1992. – 56 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 4-жилд. – Б. 66.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-жилд. – 680 б.
7. Фуломов П. Жўғрофия атамалари ва тушунчалари изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 115 б.
8. Мурзаев Э. Словарь народных географических терминов. – М.: Наука, 1984. – 653 с.
9. Хуррамов К. Узбекские народные термины, обозначающие рельеф южного Узбекистана: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1980. – 170 с.
10. Шоабдураҳманов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 450 б.